

Ilmiy to‘garaklar

2024-2025 o‘quv yilida "Gigiyena va atrof-muhit, epidemiologiya" kafedrasida kafedrada o‘qitiladigan asosiy fanlar bo‘yicha 5 ta talabalar ilmiy to‘garagi tashkil etilib, to‘garaklarda 75 nafar talaba ishtirok etmoqda. Bolalar va o‘smlilar gigiyenasi fani bo‘yicha "Yosh gigiyenist," Ovqatlanish gigiyenasi fani bo‘yicha "Nutritsiolog," Mehnat gigiyenasi fani bo‘yicha "Eksperiment," Kommunal gigiyena fani bo‘yicha "Erudit" va Epidemiologiya fani bo‘yicha "Epidemiolog" Mazkur to‘garaklardan 16 nafar iqtidorli talabalar tanlab olinib, ular to‘garak ishlardan tashqari yil davomida ilmiy izlanish va ilmiy tadqiqot ishlari asoslari bilan tanishib bordilar. Iqtidorli talabalar bilan ishslash bo‘yicha mas’ul, kafedra assistenti Koyanbayeva S.X. reja asosida yil davomida ular bilan ish olib bordi. O‘quv yili boshida kafedra mudiri, t.f.d. Absattarova V.K. va kafedra professori, t.f.d. Madreimov A.M. seminarlar o‘tkazib, talabalarni ilmiy tezis va maqolalar yozish hamda internet tarmog‘idagi adabiyotlar bilan ishslash qoidalari bilan tanishtirdilar. Kafedraning iqtidorli talabalari yil davomida katta yutuqlarga erishdilar.



2024-yil 18-noyabr kuni Qoraqalpog‘iston tibbiyot institutida bo‘lib o‘tgan Xalqaro simpoziumda "Erudit" to‘garagi a‘zosi, 304-guruh talabasi Keunimjayeva To‘lg‘anoy "Orol muammosining aholi salomatligiga ta’siri" mavzusidagi ma’ruzasi uchun sertifikat bilan taqdirlandi.



"Yosh gigiyenist" to‘garagi a’zosi "Tibbiy profilaktika" yo‘nalishi 4-bosqich talabasi Qodirov Abdullo 26-noyabr kuni Toshkentda tibbiyat oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan IV Xalqaro "Tibbiyat virtuozlari" olimpiadasida ishtirok etib, ikkinchi o‘rinni egalladi; Shuningdek, ushbu olimpiadada kafedraning iqtidorli talabalari: Mambetjumayeva A., 520-guruh talabasi, Yuldasheva N. 427-guruh talabasi, Bahodirov J., 314-guruh talabasi.



Xalqaro olimpiadaning onlayn-versiyasida "Yosh gigiyenist" to‘garagi ishtirokchisi, 426-guruh talabasi Sotvoldiyev Abdullo birinchi, "Eksperiment" to‘garagi ishtirokchisi, 309-guruh talabasi Boyqóziyeva M. ikkinchi o‘rinni egalladi.



2025-yil 24-aprel kuni Toshkent tibbiyat akademiyasida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada "Epidemiolog" to‘garagi ishtirokchisi, "Tibbiy profilaktika" yo‘nalishi 5-bosqich talabasi Abitov Nurlibek "2020-2024-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida qizamiq kasalligining tarqalishi" mavzusidagi ma’ruzasi bilan 3-o‘rinni egalladi;

"Pediatriya ishi" yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Qalibayeva G. "Eng yaxshi debyut" nominatsiyasiga sazovor bo‘ldi.



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialida 2025-yil 25-26-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan "Urganch-2030" II xalqaro fan olimpiadasida "Yosh gigiyenist" to‘garagi a’zosi Qodirov Abdullo 3-o‘rinni egalladi.